



MAMLAKATNING IJTIMOYIY IQTISODIY RIVOJLANISHINING SHAXSIY SUG'URTA TURLARINING OMMALASHISHIGA TA'SIRI

Jono'zoqov Ozod Shokir o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti, Qurilish iqtisodiyoti va menejment tadqiqatchisi

ozod.jonuzkov.edu@gmail.com

ARTICLE INFORMATION	ABSTRACT
Volume: 1 Issue: 5 DOI: https://doi.org/10.55439/INSURE/vol1_iss5/a2	Mazkur maqolada shaxsiy sug'urtaning aholini ijtimoiy himoyadagi o'rni va ahamiyati, shaxsiy sug'urta turlari va ularning mohiyati yoritib berilgan, shaxsiy sug'urta amaliyotida amalga oshirilayotgan islohotlar ko'rib chiqilgan. Hayot sug'urtasining iqtisodiy mohiyati ochib berilgan va ushbu sug'urta turining ommalashishiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan hamda shaxsiy sug'urta amaliyotini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.
KEYWORDS	<i>Sug'urta, shaxsiy sug'urta, sug'urta tashkiloti, sug'urta mukofoti, tibbiy sug'urta, hayot sug'urtasi, sug'urtalovchi, sug'urtalanuvchi, sug'urta javobgarligi, inflyatsiya.</i>

Kirish

Jahon iqtisodiyoti va moliya tizimini global rivojlanishi sharoitida yuzaga keladigan risklarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ahamiyati ortib bormoqda, aholi farovonligini oshirish maqsadida ularning manfaatlarini ishonchli sug'urta himoyasiga muhtoj. Swiss Re Institute hisobotiga ko'ra «zamonaviy global sug'urta bozorining umumiy aylanmasi 2022 yilda 7 trln. AQSh dollarini tashkil etdi, jumladan hayot sug'urtasi segmenti 2022 yilda 4,8% ga ko'tarilib, jami 3,1 trln. AQSh dollari miqdorida baholandi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida sug'urta bozori va shaxsiy sug'urta bozorida to'xislarni bartaraf etishni, shaffof va ochiq sug'urta xizmatlarini tashkil etish orqali sug'urta kompaniyalari o'rtasida raqobat muhitini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Jahon amaliyotida shaxsiy sug'urta amaliyotining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyati va faoliyat mexanizmini tahlil qilish, mamlakatda sug'urta shaxsiy sug'urta tarmog'ining institusional muhitini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari va shaxsiy sug'urta amaliyotini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasi shaxsiy sug'urta bozorining samarali mexanizmi shakli sifatida, shuningdek, sug'urta kompaniyalari tomonidan milliy iqtisodiyotga investitsiya kiritish uchun mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq masalalar hanuzgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan.

Shaxsiy sug'urta amaliyotining samaradorligini oshirishga qaratilgan sifat va miqdor ko'rsatkichlarining yangi tizimini shakllantirish va joriy qilish asosida shaxsiy sug'urta amaliyotini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hususan, "...sog'liqni sug'urtalash amaliyotini kengaytirish, sug'urtalashning yangi mexanizmlarini amalga oshirish" ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishini ta'minlashda shaxsiy sug'urta biznes jarayonlarini zamonaviy va optimal tizimini innovasion yondashuvlar asosida shakllantirish va shaxsiy sug'urta amaliyotining samaradorligini oshirish belgilanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Iqtisodiy adabiyotlarda shaxsiy sug'urtani ta'riflash, odatda, ikki usul bilan amalga oshirilishini qayd etish lozim. Birinchidan, mualliflar

tomonidan shaxsiy sug'urta majburiy va ixtiyoriy amalga oshirilishi qayd etiladi. shaxsiy sug'urtani amaliyotini takomillashtirishda iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq qilingan va tegishli ilmiy-nazariy va amaliy xulosalar shakllantirilgan. Fedorova T.A., Maxtina Yu.B., D. Rusakova O.I., Shoyko S.V., Abashin N.N., Yevsevleva M.N., Lupey N.A., Stepanova S.V. larning xulosasiga ko'ra shaxsiy sug'urta tizimi ikki tomonlama qaraladigan yondashuv ko'p tarqalgan: bir tomondan, aholini ijtimoiy himoyalash davlat tizimining elementi sifatida, boshqa tomondan – ushbu maqsadlar uchun byudjetdan tashqari mablag'lar ajratilishiga qo'shimcha tarzda, sog'liqni saqlashni moliyalashtirish va tibbiy xizmatlarni to'lash uchun pul mablag'larini ta'minlashning moliyaviy mexanizmi sifatida shakllantirish.

Fikrimizcha, yuqoridagi xulosa ko'ra, shaxsiy sug'urtaning ham, umuman sug'urtaning ham mohiyatini ochib berishga yondashuvlardan birini yaqqol aks ettiradi: u sug'urta faoliyatini sug'urtalangan shaxslarning (aholining) manfaatlarini himoya qilish usuli (shakli) sifatida ko'rib chiqadi.

Modonov A.F. fikrlariga ko'ra, shaxsiy sug'urta aholini ijtimoiy himoyalash usuli sifatida ko'rib chiqadi, shaxsiy sug'urtani ko'zda tutilmagan sug'urta hodisalari uchun kafolatlangan haq to'lash uchun mo'ljallangan badallar hisobidan pul jamg'armalarini shakllantirish jarayonidir, deb ta'riflaydi. Muallif shaxsiy sug'urtaning iqtisodiy mohiyatini ochib beradi, uning fikricha, badallar hisobidan maqsadli jamg'armalarini shakllantirishdan va ularning sug'urtalangan shaxslarning hayoti va sog'lig'ida yuzaga kelgan zararni qoplash uchun jamlangan pul mablag'lari hisobiga kafolatlaydi. Fikrimizcha, yuqoridagi xulosa ko'ra, shaxsiy badallari hisobidan shakllangan jamg'armadan hayoti va sog'lig'i uchun kerak kafolat sotib olishga imkoniyat yaratadi.

Saxirova N.P. fikriga ko'ra, shaxsiy sug'urtani alohida muvofiqlashtirish tartibini ta'riflaydi, uning maqsadi fuqarolarga sug'urta hodisasi yuzaga kelganda tibbiy yordamdan foydalanishini kafolatlash, hamda sug'urta fondining yig'ilgan maqsadli mablag'lari hisobiga tibbiy xizmat ko'rsatish xarajatlarini moliyalashtirish hisoblanadi.

Yuqoridagi xulosa ko'ra, shaxsiy sug'urtani sog'liqni saqlash sohasida aholini ijtimoiy himoyalash shakli sifatida qaraydi, u istalgan sababga ko'ra, shu jumladan kasallik yoki baxtsiz hodisa bilan bog'liq holda sog'liqni yo'qotish holati bo'yicha xarajalar kafolatini ta'minlaydi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar

Tadqiqot davomida rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar shaxsiy sug'urta amaliyotini tahlil qilish uchun taqqoslash, analiz va sintez, tarixiy va mantiqiy yondashuv, grafik usulidan foydalanildi. Nazariy bilimlar va xulosalarni shakllantirish uchun abstrakt-mantiqiy va kuzatish usulidan foydalanildi.

Tahlillar

Bugungi kunda sug'urta bozorini rivojlantirishga, uning YaIM ulushini oshirishga qaratilgan bir qator ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sug'urta bozorini raqamlashtirish va hayot sug'urtasi sohasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2021 yil 23 oktyabrdagi qarori ijrosini ta'minlash hamda sug'urta faoliyati klassifikatorini kengaytirish va shu orqali hayot sug'urta sohasi va shaxsiy sug'urta bozorida sug'urta xizmatlari turlarini ommalashtirish, aholi va iqtisodiyotning ehtiyojlariga xizmat qiladigan sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqish maqsadida, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 9 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirishlar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 21 fevraldagi 80-son qarori bilan tasdiqlangan "Maxsus elektron tizim orqali ayrim faoliyat turlarini litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi yagona nizomning 6-ilovasiga asosan tasdiqlangan Sug'urta faoliyati klassifikatoriga qo'shimcha sug'urta klasslarini qo'shish orqali kengaytirildi. Jumladan, hayotni sug'urta qilish sohasiga V-klass "Majburiyatlarni ta'minlash uchun hayotni sug'urtalash", VI-klass "Uzoq muddatli ixtiyoriy pensiya sug'urtasi" hamda VII-klass "Kapitalni qaytarish bilan hayotni sug'urtalash" klasslari kiritilgan bo'lsa, umumiy sug'urta sohasiga 18-klass "Tibbiy sug'urta" klassi kiritildi. Sug'urta klassifikatoriga kiritilgan ushbu qo'shimchalar mamlakatimiz sug'urta bozoridagi xizmatlar turini kengayishiga va aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda dunyoda shaxsiy sug'urtaning o'rni va ahamiyati ortib bormoqda. Shaxsiy sug'urta sohasida alohida o'rinni ixtiyoriy shaxsiy sug'urta egallaydi, bu hayotni sug'urtalash, baxtsiz hodisalar va kasalliklardan sug'urtalash, tibbiy sug'urta.

Mamlakatimiz sug'urta bozorida baxtsiz hodisalardan shaxsiy sug'urta bo'yicha mahsulotlarning eng keng spektri taklif etiladi. Bu shaxsiy sug'urtaning eng ommaviy turi. Barcha kompaniyalarda tegishli takliflar mavjud. Sug'urtalangan shaxs tan jarohati olgan, salomatligiga putur yetgan (nogiron bo'lib qolgan) yoxud vafot etgan taqdirda polislar xarajatlarni qoplaydi. Sug'urta hodisasi yuz berganda kompaniya shartnomaga ko'ra jarohat darajasiga qarab sug'urta summasidan foiz nisbatida haq to'laydi.

Sug'urta kompaniyalari mijozlarga alohida yondashishni afzal ko'radilar. Shu sababli «baxtsiz hodisadan sug'urtalash» mahsuloti bilan birga maxsus mahsulotlarni taklif etadilar. Ularning aksariyat qismi sportchilar, mamlakatimizda va undan tashqarida sayohat qiluvchilarni baxtsiz hodisalardan sug'urta qilishdan iborat. Yo'llardagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalanish mumkin. «O'zagrosug'urta» homilador ayolni tug'ruqxonada bo'lishi paytida sug'urtalashni taklif etadi. Ish joyidagi baxtsiz hodisalardan sug'urtalanish mumkin. Sug'urta kompaniyalari «Ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida»gi O'RQ-210-son Qonundan kelib chiquvchi vazifalarni hal etishda ham faollik ko'rsatmoqdalar. Bir qator kompaniyalar qarzdorning hayotini sug'urtalashni taklif etadilar. Bu qarz beruvchi o'z moliyaviy mablag'larini to'liq qaytarib olishini kafolatlaydi. Har bir kompaniyada boshlang'ich takliflar amal qiladi, yakuniy mahsulot esa shartnoma va sug'urta polisida bayon etiladi. Sug'urta hodisalari va ular yuz bergan taqdirda kompaniya to'laydigan summalar albatta qayd etiladi. Sug'urta qiymati ham ushbu ko'rsatkichlarga bog'liq bo'ladi. Tabiiyki, sug'urta summasi qancha katta bo'lsa, hatto arzimas jarohat olganda ham to'lovlar miqdori shuncha ko'p bo'ladi. 100% sug'urta summasi, odatda, og'ir tan jarohati olgan va vafot etgan taqdirda to'lanadi. Deyarli barcha kompaniyalarda sodiqlik dasturlari amal qiladi. Takroran shartnomalar tuzilganda xizmatlar arzonlashadi.

Hozirda xtiyoriy tibbiy sug'urta bo'yicha xizmatlarni taklif etayotgan sug'urta kompaniyalari soni tobora ortmoqda. Sug'urta polisi sotib olinayotganda tibbiy xizmatlarning aniq hajmi va ular ko'rsatiladigan tibbiyot muassasalari ro'yxati ko'rsatiladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda mijoz tibbiyot muassasasiga murojaat qiladi, sug'urta kompaniyasi esa shartnomada qayd etilgan summa doirasida davolash haqini to'laydi.

Ayrim kompaniyalar yuqumli kasalliklar va stomatologiya xizmatlari ko'rsatish holatlarini sug'urtalashni alohida mahsulotlar sifatida taqdim etadilar. Amalga o'irilayotgan Davlat dasturlariga muvofiq majburiy tibbiy sug'urtani joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqilmoqda. U quyidagilarni ta'minlashga yo'naltiriladi:

- fuqarolarning tibbiy va profilaktika xizmatlariga bo'lgan huquqlari tengligi;

-sug'urta polislariga asosan sifatli tibbiy yordam ko'rsatish kafolati;

-tibbiy va profilaktika xizmatlari qiymatini tartibga solish mexanizmini ishlab chiqish va joriy etish. Shuningdek Tibbiy sug'urta jamg'armasini tuzish rejalashtirilmoqda.

Shaxsiy sug'urtaning asosiy yo'nalishlaridan biri va bugun rivojlanib borayotgan turi bu hayot sug'urtasidir. Hayotni sug'urtalash – boquvchisining vafot etganligi munosabati bilan oila to'qnash kelishi mumkin bo'lgan ehtimoliy moliyaviy qiyinchiliklardan himoyani ta'minlovchi dastur. Korporativ mijozlar uchun sug'urtalash dasturi xodimlar va ularning oilalari ijtimoiy himoyalanihini ta'minlovchi samarali mexanizmga aylanishi mumkin. Ko'pgina kompaniyalar hayotni uzoq muddatli sug'urtalashni taklif etadilar. Hayotni uzoq muddatga sug'urtalash – hayotni sug'urta qilish hamda sarmoyani maqsadga muvofiq ravishda saqlash va ko'paytirish imkonini beruvchi jamg'arib boriladigan sug'urta badallari tizimi.

Ayrim sug'urta kompaniyalari umr bo'yi qaytariladigan renta xizmatini joriy etdilar. Ushbu taklif ijtimoiy jihatdan himoyalalanmoqchi va farovonligini oshirmoqchi bo'lganlarga mo'ljallangan. Shuningdek kompaniyalar bonuslar to'lanadigan hayotni uzoq muddatga sug'urtalash xizmatlarini taklif etmoqdalar. Bular sug'urta himoyasi bilan ta'minlashga yo'naltirilgan, pul jamg'armalarini to'plash imkonini beruvchi bixillashirilgan, uzoq muddatli dasturlardir. Odatda, sug'urta to'lovlari 2 holatda: shartnomaning amal qilish muddati tugaganda yoki mijoz vafot etganda to'lanadi.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, hayotni sug'urtalashning barqaror rivojlanishi mamlakatdagi inflyatsiya darajasi va sug'urta kompaniyalarining vaziyatni to'g'ri va o'z vaqtida baholash va uning ta'siridan himoya qilishning samarali mexanizmini aniqlash qobiliyati bilan chambarchas bog'liq.

O'z navbatida, jamg'armalarni yaratish iqtisodiy beqarorlik oqibatlarini xavfi bilan birga keladi, buning asosiy omillaridan biri inflyatsiya hisoblanadi. Narxlar oshishi bilan jamg'armalarning real qiymati yoki sotib olish qobiliyati pasaysa, inflyatsiya tejamkorlarga zarar etkazadi. Inflyatsiya davrida muddatli bank depozitlari, sug'urta mukofotlari va to'lovlari, yillik ijara to'lovlari (annuitetlar) va belgilangan qiymatga ega bo'lgan boshqa moliyaviy aktivlar o'zlarining haqiqiy qiymatini yo'qotadilar, bu esa dastlab ularning maqsadlariga to'liq mos keladigan - qiyin vaziyatlarda ishonchli tayanch bo'lib xizmat qilishni nazarda tutuvchi kutilmagan holatlar yoki xotirjam pensiyani ta'minlash uchun jamg'arish funksiyasini bajarmay qo'yadi. Bundan tashqari, inflyatsiya va o'zgaruvchan foiz stavkalari sug'urtachilar uchun tegishli mukofot stavkalarini hisoblashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Dunyoda hayotni sug'urtalash mahsulotlarining katta miqdori sug'urta davri oxirida belgilangan sug'urta summasi va oldindan belgilangan foiz (bonus) to'lovini hisobga olgan holda hisoblab chiqiladi, shuning uchun inflyatsiya darajasining o'zgarishi unga katta ta'sir ko'rsatmaydi. Bu o'lim xavfini qoplaydigan mahsulotlar, uzoq umr ko'rish yoki jamg'arma dasturlari bo'lib, ular uchun to'lovlar inflyatsiya darajasining o'zgarishi bilan oshmaydi. Bunday holda, foiz stavkalarining oshishi sug'urtachilarning kelajakdagi majburiyatlarining sof joriy qiymatiga foydali ta'sir ko'rsatadi. Kelajakdagi to'lovlarning hozirgi qiymati foiz stavkalari oshishi bilan kamayadi. Sug'urta hodisasi sodir bo'lgan taqdirda sug'urtalovchining javobgarligi miqdori doimo qat'iy bo'lishini hisobga olsak, hayotni sug'urtalash sohasida faoliyat yurituvchi sug'urta tashkilotlarining bu borada inflyatsiya ta'siriga kamroq moyil bo'ladi. Bunday holda, xarajatlarning ko'payishi, masalan, tibbiy yordam va sug'urta to'lovlarning oshishi tufayli to'lovlar miqdorini qayta hisoblashning hojati yo'q.

Biroq, inflyatsiyaning sug'urtalovchilar majburiyatlariga nisbatan kichik ta'siriga qaramay, foiz stavkalari darajasining o'zgarishi ko'plab mahsulotlarga talab va ommalashishiga va shu bilan sug'urta tashkilotlarining daromadlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Sug'urtalovchining qo'shimcha investitsiya daromadlarida sug'urtalovchilarning ishtiroki jamg'armalarni inflyatsiyadan ma'lum

darajada himoya qilishiga qaramay, inflyatsiya darajasining oshishi yoki pasayishi vaqt o'tishi bilan uzoq muddatli hayot sug'urtasi mahsulotlari narxining o'zgarishiga olib keladi, belgilangan sug'urta summolari va foizlar, badallarning nominal miqdorining doimiyliqi inflyatsiyani hisobga olgan holda uning real qiymatini pasayishiga olib keladi.

Deflyatsiya yoki inflyatsiya va foiz stavkalarining pasayishi davrlari kafolatlangan to'lov miqdori bilan jamg'arma mahsulotlarini sug'urtalovchilar uchun ma'lum xavf tug'diradi. Bunday mahsulotlar sof qiymatning qaytarilishini ta'minlaydi va shuning uchun investitsiya mablag'lari daromadni kafolatlash uchun etarli bo'lmaganda tashqi ta'sirlarga ko'proq moyil bo'ladi. Xuddi shu narsa sug'urtalovchilarning aksiyalar bo'yicha kafolatlangan foizlarni to'lash majburiyatlariga ham tegishli, chunki Fond bozori odatda deflyatsiya davrida zarar ko'radi.

Hozirgi vaqtda hayotni sug'urtalash mahsulotlari keng qo'llanilmoqda, bunda sug'urtalangan shaxs moliyaviy vositalarni tanlash va investitsiya qilingan mablag'larni (unit-linked) boshqarish imkoniyatiga ega. Bunday holda, sug'urta kompaniyasi hech qanday foizlar to'lanishini kafolatlamaydi (yoki minimal foizlarni to'lashni kafolatlashi mumkin) va asosiy investitsiya tavakkalchiligi sug'urtalangan shaxsga tushadi. Bunday mahsulotlar investitsiya bozori etarlicha rivojlangan va tegishli qonunchilik bazasi mavjud bo'lgan bozorlarda keng tarqalgan.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, dunyo bozorida shaxsiy sug'urta tarmog'ining asosiy qismini hayot sug'urta turlari egallaydi, ammo ushbu sug'urta turining ommalashtirishiga inflyatsiya salbiy ta'sir etadi. Inflyatsiya sharoitida sug'urtalovchilar uchun ham, sug'urtalanuvchilar uchun ham jozibador bo'lgan sug'urta

mahsulotlarini yaratish uchun ikkita eng samarali mexanizmdan foydalanish mumkin:

- sug'urtalovchining (investitsiya) foydasini taqsimlash, bu polis bo'yicha jamg'armalarning qadrsizlanishidan himoyalanih imkonini beradi;

- sug'urta mukofotlarini inflyatsiya darajasini hisobga olgan holda indeksatsiya qilish, bu sug'urta mukofotlarini amortizatsiyadan himoya qilishga yordam beradi. Bu ikki mexanizm birgalikda sug'urta imtiyozlarini inflyatsiyadan himoya qiladi

Yuqoridagilarni sarhisob qiladigan bo'lsak, hayotni sug'urtalashning samarali rivojlanishi va aholining talabi bevosita mamlakatdagi inflyatsiya darajasiga bog'liq. Hayotni sug'urtalash sohasining uzluksiz rivojlanishini ta'minlash maqsadida uni inflyatsiya ta'siridan himoya qilish mexanizmi ham qonunchilik normalari darajasida belgilanishi, ham sug'urta kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilishi va kafolatlanishi zarur. Inflyatsion kamchiliklarni yumshatishning bunday mexanizmlaridan foydalanish sug'urtalovchilarning o'zlarini yanada uzoq muddatli barqaror rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi va sug'urtalanuvchilar uchun sug'urta mahsulotlarining jozibadorligini oshiradi.

Ixtiyoriy shaxsiy sug'urta O'zbekistonda ham, jahon miqyosida ham sug'urta bozori tarkibida alohida o'rin tutadi. Sug'urta mahsulotlarining moslashuvi va sug'urta kompaniyalarining innovatsiyalari, xarajatlarni optimallashtirish, malakali xodimlarni jalb qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish – bularning barchasi sug'urta kompaniyalariga hozirgi raqobat va raqamlashtirish sharoitida minimal yo'qotishlar va yuqori samaradorlik bilan rivojlanish imkonini beradi.

References:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сонли “2022 - 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида” ги Фармони, www.uza.uz
2. Sorek, G., & Benjamin, D. (2016). Health insurance mandates in a model with consumer bankruptcy. *Journal of Regulatory Economics*, 50(2), 233-250. doi:10.1007/s11149-016-9302-x
3. Rey, D., Garrido, A., & Calatrava, J. (2016). Comparison of Different Water Supply Risk Management Tools for Irrigators: Option Contracts and Insurance. *Environmental and Resource Economics*, 65(2), 415-439. doi:10.1007/si 0640-015-9912-2
4. Шахов В.В. Страхование: Учебник для вузов. – М. ЮНИТИ, 2001. – 311 б.
5. Ефимов С. Л. Энциклопедический словарь: Экономика и страхование. - М.: ЦЕРИХ-ПЭЛ, 1996. - 528 б.
6. Ермасов С.В., Ермасова Н.Б. Страхование: Учеб. пособие для вузов. – М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2004. – 462 с.
7. Дюжиков Е.Ф. Перспективы сотрудничества стран СНГ в области страхования // Финансы. - 2000. - №6.-С.42-44
8. Таракуцяк А.О. Страховые услуги: Учебное пособие. – К.: Из-во: Европа, 2003. - 584 с .
9. Плис В.И. Страхования: Навч. посібник – К.: Каравела, 2005. – 392с.
10. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб. - К.: Знання, 2005. – 351 с.
11. Александрова М.М. Страхование: Учебно-методическое пособие. – К.: ЦУЛ, 2002 – 208с.
12. Базилевич В.Д., Базилевич К.С. Страхова справа. – 4-те вид., перероб.- К.: Знання, 2005. – 351 с.;
13. Страхование: учебник / под ред. Т.А. Федоровой. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Экономистъ, 2005. С. 340.
14. Махтина Ю.Б. Некоторые подходы к определению сущности ОМС. // Страховое дело. 2003. № 2. С. 19.
15. Медицинское страхование:/ Русакова О.И., Шойко СВ., Абашин Н.Н., Евсвелеева М.Н., Махтина Ю.Б. Учеб.пособие. - Иркутское медицинское издательство, 2003. С. 33-34.
16. Лупей Н.А., Степанова СВ. Социальное страхование в России: состояние и проблемы. // Финансовый менеджмент. 2002. № 5. С. 138.
17. Модонов А.Ф. Развитие обязательного медицинского страхования в регионе: Диссертация на соискание ученой степени кандидата экономических наук: 08.00.10. - Иркутск: 2002. С 20.
18. Сахирова Н.П. Страхование: учеб. пособие. - М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, 2006. С. 198.
19. <https://www.insur-info.ru/press/176035/> - Swiss Re Institute.pdf. ..